XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI
(TOJIKISTON)

“INTERPRETATION AND RESEARCHES”
XALQARO ILMIY JURNALI
(O‘ZBEKISTON)




## КОНФЕРЕНСИЯИ ИЛМИИ БАЙНАЛМИЛАЛӢ

# “МУАММОҲОИ ИЛМУ ФАН ДАР ШАРОИТИ ҶАҲОНИШАВӢ”

# “GLOBALLASHUV SHAROITIDA ILM-FAN MUAMMOLARI”

## XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

zenodo | cyberleninka | google scholar

Google Scholar

OPEN ACCESS

https://interpretationandresearches.uz

- ANIQ VA TABIIY FANLAR YANGI TADQIQOTLAR
- IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARDA ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA
- PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA INNOVATSION YONDASHUVLAR
- FILOLOGIYA FANI TA’LIMIDA INNOVATSION USULLARI

- ТАҲҚИҚОТҲОИ НАВ ДАР СОҲАИ ИЛМҲОИ ДАҚИҚ ВА ТАБИӢ;
- ФАНҲОИ ИҶТИМОӢ-ГУМАНИТАРӢ ДАР ТАҲҚИҚОТҲОИ МУОСИР;
- МУНОСИБАТҲОИ ИННОВАТСИОНӢ ДАР ТАҲҚИҚИ ФАНҲОИ ПЕДАГОГӢ;
- МЕТОДҲОИ ИННОВАТСИОНИИ ТАЪЛИМИ ФАНҲОИ ФИЛОЛОГӢ.

Mazkur xalqaro konferensiya ilm-fan va ta’lim sohalarida faoliyat olib borayotgan professor o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, talabalar, magistrantlar, doktorantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot natijalarini keng yoritish maqsadida Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston) va “Interpretation and researches” xalqaro ilmiy jurnali tahririyati (O‘zbekiston) tomonidan tashkil etildi.

# МАВОДИ

## конференсияи илмии байналхалқии “Муаммоҳои илму фан дар шароити ҷаҳонишавӣ”

## “Globallashuv sharoitida ilm-fan muammolari”

mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya

## MATERIALLARI TO‘PLAMI

## 15.11.2024

***Фанҳои иҷтимоӣ-гуманитарӣ дар таҳқиқотҳои муосир***

***Ijtimoiy-gumanitar fanlar zamonaviy tadqiqotlarda***

**1-qism**

Xo‘jand, Farg‘ona

## Xalqaro konferensiya tahrir hay’ati a’zolari

**Masharipova Gularam Kamilovna**
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
**Hojiyev Sanjar Samadovich**
Buxoro davlat universiteti “Agonomiya va tuproqshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)
**Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna**
Falsafa fanlari doktori, professor
O`zbekiston Milliy universiteti
**Navruzova Gulchixra Nigmatovna**
Falsafa fanlari doktori, professor
Buxoro muxandislik-texnologiya instituti
**Djumaniyazova Feruza Djumanazarovna**
Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori
O‘zR FA Sharqshunoslik instituti
**Akbarov Qobuljon**
Qo‘qon DPI, Tarix fanlari nomzodi
**Bazarov Otabek Odilovich**
Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
**Zokirov Sanjar Ikromjon o‘g‘li**
Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori.
Farg’ona politexnika instituti
**Akramov Shukurjon To‘xtasinovich**
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
**Xasanov Akbarjon Abdurashidovich**
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
**Yakubov Ilham Yuldashevich**
Kimyo fanlari nomzodi
FarDU Kimyo kafedrasi dotsenti
**Maxmudova Nilufarxon**
Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
**Rahmatullayeva Dilafro‘zxon**
Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
**Eshquvvatov Ulug‘bek Abdulla o‘g‘li**
Termiz muhandislik – texnologiya instituti
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori
**Azimov Zikrjon Muhammadovich**
Farg‘ona davlat universiteti tuproqshunoslik kafedrasi katta o‘qituvchisi b.f.f.d., (PhD)
**Madrahimov Ilhomjon Sobirovich**
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili kafedrasi dotsenti
**Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich**
Qoraqalpoq davlat universiteti Amaliy filologiya kafedrasi dotsenti, Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori
**Vaisova Moxira Davlatboevna**
Urganch davlat universiteti matematik tahlil kafedrasi dotsenti
**Nazarov Mustaqim Rashidovich**
Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasi, dotsenti
**Nazarova Nargiza Mustaqimovna**
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
**Ahmedova Dilfuza Maxammadovna**
Farg‘ona davlat universiteti ekologiya kafedrasi dotsenti
**Qo‘ldashev Sherali Temiralievich**
O‘zRFA Sharqshunoslik instituti
tarix fanlari doktori, dotsent
**Tishabayeva Irodaxon Rasulovna**
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali “O‘zbek tili va gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
**Rahmonov G‘afforjon Ro‘zmatovich**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti
**Sharipova Lobar Akramovna**
Jizzax shahridagi Qozon federal universiteti filiali “Tibbiyot” kafedrasi dotsenti v.b.
**Abdukarimov Jamoliddin**
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xo‘jand davlat universiteti
Tojikiston
**Muxtorov Kiromuddin Tochievich**
Huquqshunoslik fanlari nomzodi, dotsent
Xo‘jand davlat universiteti
Tojikiston
**Hamdamov Sherali Jumabekovich**
Matematika-fizika fanlari nomzod
Xo‘jand davlat universiteti
Tojikiston
**G‘ufronov Dodaxon Najmidinovich**
Geografiya fanlari nomzodi
Xo‘jand davlat universiteti
Tojikiston
**Bahriev Fayzullojon Faxriddinovich**
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Xo‘jand davlat universiteti, Tojikiston
**Fuat Serkan Say**
Phd, Mersin Universiteti Turkiya
**Tuba Tombuloglu**
Phd, Mersin Universiteti Turkiya
**Hayrettin İhsan Erkoç**
Chanakkale Onsekiz Mart Universiteti
Turkiya
**Abdul Khalil Ahmadoughli**
Baxl Universiteti Til Va Adabiyot Fakulteti
O’zbek Tili va Adabiyotı dotsenti,
Avg‘oniston

# XALIFA XUDOYDOD MAJMUASI TO’G’RISIDA BA’ZI MULOHAZALAR

**Jo’rayeva N.O**

BuxDU, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Abdullayeva F.Sh**

BuxDU, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Buxoro shahrida joylashgan Xalifa Xudoydod majmuasi haqida so’z yuritilib, tarixiy taraqqiyot davomida bu yodgorlikda amalga oshirilgan topografik o‘zgarishlar tahlil qilib berilgan.

**Kalit so’zlar :** majmua, xojagon tariqati, masjid, madrasa, sardoba, xonaqoh, qabr, tahoratxona, aholi turar joylari.

Xalfa Xudoydod majmuasi - Buxoroning Havzi Nav guzarida (hozirgi Xalifa Xudoydod ko‘chasi) joylashgan bo‘lib, Xalfa Xudoydod tomonidan bunyod etilgan. Manbalarda uning to‘liq ismi Shayx Xudoydod ibn Toshmuhammad Azizon al-Buxoriy sifatida tilga olinadi.

Tariqatning ulug’ piri, buyuk tarbiyachi, alloma va avliyo Hazrat Xalifa Xudoydod haqida Humuliyning “ Tarixi Humuliy”, Nosiriddin To’raning “Tuhfat az-zoirin” kabi manbalarda ma’lumotlar berilgan.

Xalifa Xudoydod Xorazm shayxlari oilasidan bo‘lib, Buxoroga kelib Miri Arab madrasasida qariyb qirq yil tahsil olgan. Shundan so‘ng shayx Azizon Lutfullodan irshod ilmini o‘rgangan [1.- P.96]. Xalifa Xudoydod ma’lum vaqt ustozining ruxsati bilan Buxoroga qarashli Pirmast tumani Ko‘li Odina hududiga ko‘chib o‘tib, xojagon tariqatining taniqli vakili Mahmud Anjir Fag‘naviy ziyoratgohida yashab, bu yerda xonaqoh qurdirib, 200 tanob yerni shu xonaqoh foydasiga vaqfga aylantirgan [3.-P.5].

Oradan bir necha yil o‘tib, XVII asr oxirlarida u yana Buxoroning Jo‘ybor mavzesiga doimiy yashash uchun ko‘chib keladi va 12 tanob hududda masjid, 40 hujradan iborat madrasa, sardoba va tahoratxona qurdirgan [4.-P.4]. Lekin Xalifa

Xudoydod madrasasi vaqf hujjatida hujralar soni 37 tani tashkil qilishi qayd etilgan va bunga Qur'on Karimda Tavhid (ya'ni Allohning yagonaligi) so'zining 37 marotaba takrorlanishi sabab qilib ko'rsatilgan [2.-P.87]. Demak, Xalifa Xudoydod o'z davrining din peshvosi, yetuk olimi, ilm-ma'rifat homiysi bo'lishi bilan birgalikda ulkan bunyodkor shaxs bo'lgan.

XVIII- asr oxirida Xalifa Xudoydod majmuasidagi masjid va tahoratxona Chorbog'i Boqi Muhammadxon ko'chasida joylashgan [3.-P.5.]. Shuningdek, Xalifa Xudoydod madrasasi, masjid va tahoratxonasi uchun 1000 tanob yer vaqf qilingan[4.-P.4.].

Manbalarda Xalifa Xudoydodning muborak qabri u qurdirgan madrasa yaqinida ekanligi haqida ma'lumot berilgan [1.-P.19.]. Bu ma'lumotdan ayon bo'ladiki, keyinchalik majmua atrofi yirik qabristonga aylanib borgan.

Hozirda mazkur majmuaning orqa qismi (shimoli)da joylashgan 39-maktabgacha ta'lim tashkiloti (bog'cha)ning ichkari hovlisining janubiy qismida, madrasa hujrasining orqa devorida (madrasa ichida Xalifa Xudoydod qabri joylashgan) qabrlar saqlanib qolganligi ham bu ma'lumotni asoslaydi.

Sovet Ittifoqi davrida Buxoro shahrining tarixiy So'fiyon, Mirakon, Sohibzoda, Saraxsiyon, Jo'ybor va yana bir qancha guzarlari qatorida Xalifa Xudoydod yodgorlik kompleksi atrofida ham katta topografik o'zgarishlar amalga oshirilgan.

Shaharning janubiy va markaziy qismida amalga oshirilgan bunday qayta qurish va yangilanishlar, shubhasiz, bu hududlarning asl tarixiy qiyofasini yo'qolishiga olib kelgan. Shuningdek, Buxoro shahrining janubiy-g'arbiy tarixiy Jo'ybor mavzesiga yaqin joylashgan Xalifa Xudoydod majmuasida (Xalifa Xudoydod ko'chasi) ham qator o'zgarishlar amalga oshirilgan. Bugun bu yerda qator aholi turar joylari qad ko'targan. 1959-1960-yillarda Xalifa Xudoydod majmuasidan faqatgina sardoba ta'mirlangan[5.].

Bugungi kunda Xalifa Xudoydod majmuasi (madrasa, masjid, sardoba va tahoratxona) Buxoro shahri Xalifa Xudoydod ko'chasida joylashgan. Majmua Xalifa Xudoydod nomidagi masjid, madrasa va sardobadan iborat. Madrasa hujralarining

soni, vaqf hujjatida ko‘rsatilganidek 37 ta [3.-P.5.]. Shu hujralarning birida Xalifa Xudoydodning ramziy qabri mavjud.

Mustaqillik yillarida Xalifa Xudoydod xonaqosi O‘zbekiston musulmonlar idorasi tashabbusi bilan asl tarixiy qiyofasiga keltirildi. Majmuadagi sardoba, Xalifa Xudoydod madrasasi hujralari va tahoratxona ta’mirlandi. Xalifa Xudoydod madrasasi orqa tomonidagi 39-maktabgacha ta’lim tashkiloti hududida joylashgan qabrlar ustiga sag‘analar qurildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**1.** Муҳаммад Насириддин Ал-Ханафи Ал-Ҳасани Ал-Бухари. Тухфат аз-заирин (Бухарская часть) / Перевод с таджикско-персидского, предисловие и комментарий Х.Тураева.–Ташкент: Французский институт исследований Центральной Азии (IFEAC), 2003.- Б.19.

**2.** Тураев Х. Вакфный документ архитектурного комплекса Халифа Худайдад в Бухаре // Из истории культурного наследия Бухары. – Бухара: Бухара, 2001.-С.87.

**3.** ЎзМА, И-323-фонд,1-рўйхат, 18-йиғма жилд, 5-варақ.

**4.** ЎзМА, И-323-фонд,1-рўйхат, 18-йиғма жилд, 4-варақ.

**5.** Бухоро ВДА,Ф-837-фонд, 1-рўйхат, 17-йиғма жилд, 2, 3, 4-варақлар, Бухоро ВДА,Ф-837-фонд, 1-рўйхат, 30-йиғма жилд, 6-варақ.

**6.** Нафиса Жураева. Важный источник в изучении исторической топографии города Бухары. / Interpretation and researches.2024.-P.257-261.

**7.** Jurayeva Nafisa Olimovna. The role of shrines and cemeteries in forming the historical topography of Bukhara city. / FİLOLOJİ VE KÜLTÜR ARAŞTIRMALARI. KARABÜK – 2024.

**8.** JN Olimovna, MH Al Rahman. Topography of Shrines of Bukhara in the Work of “Toohfat Uz-Zoirin”. / European Journal of Learning on History and Social Sciences.2023.T.1.-P.131-134.

**9.** Jurayeva Nafisa Olimovna, Punit Gaur. Expression of Information on Topographical Location of Pilgrimages in Special Works. / International Journal of Culture and Modernity.2023.T.1.-P.72-75.

**10.** Nafisa Jurayeva, Zarina Anvarova. Holy shrines as composition of topography of Bukhara city. / Science and innovation in the education system.2023.T.2.-P. 185-189.

| | | |
|---|---|---|
| | Nishonboy Qulboyev Sobur o'g'li | |
| 34. | MADANIY MEROS VA MADANIY BOYLIKLAR DEFINITSIYALARI<br>Alibekov Umurzoq Yuldashevich | 204 |
| 35. | QADIMGI XORAZM HUDUDIDA SHAKLLANGAN MARKAZIY SHAHARLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI<br>Egamberdiyeva Nigora Azadovna<br>Atajanov Muxiddin Ilxomovich | 213 |
| 36. | XALIFA XUDOYDOD MAJMUASI TO'G'RISIDA BA'ZI MULOHAZALAR<br>Jo'rayeva N.O<br>Abdullayeva F.Sh | 222 |

**Eslatma! “Globallashuv sharoitida ilm-fan muammolari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyasi toʻplamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, maʼlumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar toʻgʻriligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

**Mas’ul muharrir**

**R.I.Abdullayev**

**“Муаммоҳои илму фан дар шароити ҷаҳонишавӣ”**
**“Globallashuv sharoitida ilm-fan muammolari” 2024-yil. 229 bet.**
**© Mualliflar jamoasi.**
**© Xoʻjand, Fargʻona**